

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

6

2023



- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti

- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Qo'ng'irotboy Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rincbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Elektron nashr. 424 sahifa, 30-iyun, 2023-yil.

Muharrir:

Qurbanov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Rae Kvon Chung, Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Abdurahmonov Qalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyatni rahbari

Toshkulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof., O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta'lif, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport masalalari bo'yicha maslahatchisi o'rincbosari

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri o'rincbosari

Sharipov Qo'ng'irotboy Avazimbetovich, t.f.d., prof., TDIU rektori

Oblamuradov Narzulla Naimovich, i.f.n., dots., O'zR Tabiat resurslari vaziri o'rincbosari

Djumaniyazov Maqsud Allanazarovich, Qoraqalpog'iston Resp. Tabiat resurslari qo'mitasi raisi

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlis qonunchilik palatasi deputati

Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rincbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo'yicha prorektori

Xudoqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YomMMIB birinchi prorektori

Abdurahmanova Gulnora Qalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlari va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

Yuldashev Maqsud Abdullayevich, p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori

Karimov Norboy G'aniyevich, i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori

Hakimov Nazar Hakimovich, f.f.d. TDIU profesor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasи professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rincbosari

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o'qituvchisi

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktaranti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'onan davlat universiteti dotsenti

Ekspertlar kengashi:

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Imomqulov To'iqin Burxonovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,

O'zR Tabiat resurslari vazirligi,

O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining

2023-yil 1-apreldagi 336/3-soni qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Sanoat korxonalarida energiyadan foydalanish samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlari	6
Buzrukxonov Sardorxon Sarvarxon o'g'li , mustaqil izlanuvchi	
Klasterlarni rivojlantirishda fermer xo'jaliklarining strategik boshqaruvi	11
Karimova Nilufar , tayanch doktarant	
Application of Information and Communication Technology to Promote Economic Development of Tourism Services in Uzbekistan	16
Peng Xinge , PhD Researcher	
O'zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan samarali foydalanishning asosiy yo'nalishlari.....	21
Xotamov Ibodulla Sadullayevich , i.f.n., professor, Najmiddinov Yakhyo Fazliddin o'g'li , kafedra assistenti	
Suv ta'minot korxonalarida biznes jarayonlari bo'yicha boshqaruv hisobi tizimida hisob yuritishning xususiyatlari.....	28
Saidakbarov Xusniddin Abdisalomovich , PhD, katta o'qituvchi	
O'zbekiston ichki oziq-ovqat tovarlari bozorini to'ldirishning o'ziga xos xususiyatlari.....	31
Azlarova Munira Muhammad Amin qizi , tadqiqotchi	
Assessing the Implementation of Sustainable Practices in Higher Education Institutions to Drive the Transition towards a Green Economy: A Management Perspective	40
Kuzikulova Dilfuza	
Qualitative functional development in industrial production.....	49
Ziyayeva Mukhtasar Mansurdjanovna , TSUE, DSc, assistant professor	
Temir yo'l transportini mahalliylashtirishni moliyalashtirish mexanizmning hozirgi holati.....	54
Xamrayev Djamshid Panjiyevich , mustaqil tadqiqotchi	
Enhancing Education Management for Green Development in Engineering Programs: Strategies, Challenges, and Outcomes.....	61
Eshbayev Oybek , Department of English Language	
Exploring the Role of Effective Management Practices in Achieving a Sustainable Green Economy.....	68
Rozikov Ravshan , Department of English Language	
Enhancing Vocational Competence of Future Economists through English Language Lessons in the Context of the Green Economy.....	76
Kurbanova Nigina , Department of English Language	
Empirical test of regional economic innovation and development along the Belt and Road	85
Kalonov Mukhiddin Bahridinovich , professor	
Shao Junling , PhD student, researcher	
Analysis of the Impact of Cross border Investment and International Economic Integration.....	90
Zhao shenghan	
Yashil iqtisodiyotni moliyalashtirishda bank moliya texnologiyalarining ahamiyati.....	96
Abduraximova Dilora Karimovna , PhD	
Rivojlangan mamlakatlarda bilimlar iqtisodiyoti konsepsiyasidan samarali foydalanish yo'nalishlari.....	101
Xasanxonova Nodira Isametdinovna , PhD	
Biznes inkubator orqali kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini shakllantirishda "yashil logistika" tamoyillaridan foydalanish.....	107
Narzullayev Shodiyor Eshpulatovich , kafedra assistent	
Innovatsion faoliyatning asosi – intelektual salohiyat	112
Kaxorova Anora Nusratovna , kafedra assistenti	
Ijro hokimiyyati organlari faoliyatini baholash mezonlari tushunchasi va turlari	118
Qahramon Usmanovich Umidullayev , yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)	
Temir yo'l transportida mahalliylashtirishni moliyalashtirishning huquqiy asoslari.....	124
Xamrayev Djamshid Panjiyevich , mustaqil tadqiqotchisi	
Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari bo'yicha moliyaviy hisobot: tayyorlash va avtomatlashtirish	129
Tulayev Mirzakul Salamovich , dotsent	
O'zbekistonda kichik tadbirkorlikni rivojlantirishning samarali yo'llari	133
Sh. B. Babayev , dotsent; M. R. Qulmetov , dotsent	
Sug'urta kompaniyalari to'lov qobiliyatini kengaytirish yo'nalishlari	138
G'aniyev Shahriiddin Vohidovich , professor, i. f. d. (DsC), Qarshiyev Daniyar Eshpulatovich , i. f. f. d. (PhD)	



Повышении роли цифровой трансформации банков в современном этапе развития экономики	144
Жиянова Наргиза Эсанбоена , к.э.н., проф., Азимжонова Малика Шавкат қизи , специалист первой категории	
To'qimachilik korxonalarida tejamkor ishlab chiqarishni tashkil etishda mehnat resurslari va ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish samaradorligi	150
Yaxyayeva Inobat Karimovna , dotsent, PhD	
Liquidity and recent changes of government securities market in the United States, the United Kingdom and Japan.....	154
Kholikov Khamidulla Vaydulla ugli	
"История экономических учений" как основная дисциплина в подготовке конкурентоспособных кадров экономистов	160
Хакимов Назар Хакимович , доктор философских наук, профессор	
The importance of strategic management and strategic leadership	166
Reyimberdiyev Baburbek Adilbek o'g'li	
Exploring the Role of Higher Education in Fostering Green Economy Transition: A Systematic Analysis of Curriculum Integration and Skill Development.....	170
Xasanova Zarina , Department of English Language	
Inson kapitalini joriy etish tizimi va xodimlar daromadi o'rtasidagi o'zaro ta'sir tahlili.....	178
M. O. Hamroqulov , katta o'qituvchi	
Yetuk mutaxassis tayyorlash – kelajak uchun sarmoya.....	185
Farhod Bagibekovich Xalimbetov	
Analysis of new established and liquidated enterprises as a basis for jobs (On the example of Samarkand region)	188
Saidov Nurali Rakhimovich	
Basing and forecasting the priorities of introducing innovative medical services in Khorezm region.	193
S. M. Rakhimova	
Оптимизации операционной стратегии и повышение экономического потенциала хлопково-текстильных кластеров	197
Джурабаев Отабек Джурбаевич , доцент	
Soliq to'g'risidagi qonunlarni buzganlik uchun yuridik javobgarlikka tortishning huquqiy asoslari....	204
Hakimov Feruz Xurshid o'g'li , talaba	
Hayot sug'urtasining rivojlanishi va uning ijtimoiy hayotdagি o'rni	207
Baratova Dinora Alisherovna , katta o'qituvchisi	
Edge Computing texnologiyalari	213
Qulmatova S. , PhD, katta o'qituvchi; Karimov Botir , katta o'qituvchi	
Aksiyadorlik kapitalida davlat ulushini qisqartirish va xususiylashtirish holati	218
Mamatov Bahromjon Shavkatovich , PhD, dotsent	
Xususiy maktablarning ijobiy imijini shakllantirishning nazariy jihatlari.....	223
Odilova Sitora Sayfitdin qizi , katta o'qituvchi	
Tomorqa xo'jaliklarida oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish hajmining prognoz ko'rsatkichlari	228
Saydullayeva Fotima Jozilovna , assistant	
O'zbekiston sug'urta bozori rivojlanishining o'ziga xos xususiyati.....	235
Xasanov Xayrulla Nasrullahovich	
O'zbekiston yoshlarida volontorlik faoliyatini rivojlantirishning ijtimoiy-siyosiy va huquqiy mexanizmlari: jahon va mahalliy tajriba	241
Qudratov Anvarmirzo Murodillayevich , siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)	
Культурологический аспект преподавания русскоязычной литературы Казахстана в ВУЗе	247
Оспан Айзада Бейсенқызы , докторант 2 курса	
Tijorat banklarida kreditlash riskini boshqarish holati tahlili.....	251
Mirzoyev Feruz Mamurjonovich , mustaqil izlanuvchi	
Tijorat banklari aktivlarini diversifikatsiyalashning zamonaviy holati va tendensiyalari	259
Abdualim Abdujabbor o'g'li Abdurazzoqov , mustaqil tadqiqotchi	
Significance and prospects of using economic-mathematical models in analysis of our country's economic growth	267
Rasulov Jamshid Shokir o'g'li	
Bank daromadlilik ko'rsatkichlariga makroiqtisodiy omillar ta'siri.....	274
Madraimov Xabibulla Madaminovich , assistant o'qituvchi	



Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishning ilmiy konsepsiyalari	282
Mamatov Mamajan Axmadjonovich , i.f.n., dotsent	
Qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarishni rivojlantirishning makroiqtisodiy barqarorligini ta'minlash	288
Ergashova Nargiza Boboxonovna , talaba	
Budget-soliq va pul-kredit siyosatini muvofiqlashtirishning nazariy yondashuvlari	296
Hakimjon Hakimov , tadqiqotchi	
Innovatsion-brokerlik faoliyatini rivojlantirishda moliyaviy injiniringni ahamiyatini oshirish istiqbollari.....	301
Saipnazarov Sherbek Shaylavbekovich , dotsent	
O'zbekistonda inson kapitalini rivojlantirishda ta'lif xizmatlari bozorining ahamiyati	306
Babadjanova Malika Ruzimovna , assistent o'qituvchi	
O'zbekiston sug'urtalovchilarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda qayta sug'urtaning roli	312
Kamilov Baxramjon Umardjonovich	
Shaxs ma'nnaviy-axloqiy tarbiyasi hamisha muhim.....	317
Bekdavlat Aliyev , professor, falsafa fanlari doktori	
Jismoniy shaxslar daromadini soliqqa tortishning zamonaviy tendensiyalari	321
O. T. Nurmatov , PhD	
Milliy mahsulotning mazmuni, tarkibiy qismlari va harakat shakllarini tadqiq qilishning nazariy-uslubiy asoslari.....	327
Abdullayev Suyun Artiqovich , O'zbekiston jahon tillari universiteti prorektori	
O'zbekiston Respublikasidagi yirik tijorat banklari kreditlash amaliyotining ekonometrik tahlil va natijalari.....	335
Kaxxarov Ulug'bek Xalmatovich , mustaqil izlanuvchi	
Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatda ichki nazorat va auditning xususiyatlari.....	346
Saidaxmedova Aida Mirzayevna , katta o'qituvchi	
Yangi O'zbekistonda yog'-moy korxonalari personalini boshqarishni takomillashtirish.....	352
D. A. Azlarova , PhD	
The Intersection of Sustainability and Economic Development:	
Balancing Environment and Business Needs	360
Kholikova Rukhsora Sanjarovna , PhD, Izzatulloev Bakhodir Ubaydullo ugli , student	
Davlat-xususiy sheriklikni tashkil etishning huquqiy-institutsional mexanizmlari	364
Zuhra Abdikarimova , tayanch doktorant	
Zamonaviy portfel nazariyasi asosida samarali portfeli shakllantirish.....	370
Sindarov Fazliddin Qahramonovich , kafedra assistenti	
Iste'molchilarning qandolat mahsulotlariga bo'lgan talablarini raqamli platformalar orqali tadqiq qilish yo'llari	376
To'ychiyeva Vasila Faxriddin qizi , assistent	
Investitsiya muhiti va faoliyati natijalarini baholash uslublari.....	381
B. K. Tuxliyev , professor	
Sanoat korxonalarida resurslar salohiyatini tizimli tahlil qilish – korxonalarining iqtisodiy barqarorligini ta'minlash omili sifatida.....	386
Madraximova Gulasal Ro'zimboy qizi , PhD	
Mintaqada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishi tahlili (Xorazm viloyati misolida).....	391
Aminboy Sa'dullayev , i.f.n., dotsent, Dilshod Vaisov , magistr, Farhod Egamberganov , magistr	
Xizmatlar ko'rsatish korxonalarini soliqqa tortish amaliyoti va uni takomillashtirish.....	397
Pardayev Jamshid Muzaffarovich , tadqiqotchi	
Asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar: yutuqlar, kamchiliklar va yechimlari.....	403
Muxtidinova Kamola Alisherovna , PhD	
Directions of attracting foreign capital and specific characteristics of the eurobond transaction.....	407
Gafurov Olimjon , teacher, Kholmuminov Humoyun , teacher, Abrueva Sevinch , student,	
Формирование международных систем бухгалтерского учета в условиях глобализации экономики	411
Ф. Т. Абдувахидов , доцент, А. Ю. Нурмухаммедов , доцент	
Qishloqda turizmni tashkil etishning mamlakatimiz taraqqiyotiga ta'siri	417
Jo'rayeva Nargiza Abduvohidovna , dotsent	
Public debt, poverty and economic growth of Uzbekistan	420
Mirzamakhmudov Marufjan Mahamadsharif ugli	



MILLIY MAHSULOTNING MAZMUNI, TARKIBIY QISMLARI VA HARAKAT SHAKLLARINI TADQIQ QILISHNING NAZARIY- USLUBIY ASOSLARI

Abdullayev Suyun Artiqovich
O'zJTU prorektori



Annotatsiya: maqola iqtisodiy taraqqiyotni jadallashtirish jarayonida yalpi ichki mahsulot, uning tarkibiy qismlari harakati va uning har bir bosqichida shakllanadigan makroiqtisodiy ko'ssatkichlarni hisoblash uslubiyatini takomillashtirishning nazariy jihatlarini tadqiq qilishga bag'ishlangan.

Maqolada yalpi ichki mahsulot, uning tarkibi va namoyon bo'lish shakllarining iqtisodiy mazmuniga muallifning o'z yondashuvlari bayon qilingan hamda ular o'tasidagi bog'liqlik ilmiy-nazariy jihatdan asoslangan.

Tadqiqot ishida yalpi ichki mahsulotni turli usullarda hisoblashdan ko'zlangan maqsad, har bir usulning afzallik va kamchiliklari bayon qilinib, ularni takomillashtirish bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar berilgan.

Maqolada muammoning nazariy tomonlari bilan birga, uning amaliy jihatlari respublika iqtisodiyotining rivojlanishini tafsiflovchi rasmiy statistik ma'lumotlarni tahlil qilish orqali ochib berilgan. Ishning yakuniy qismida YalM va uning tarkibiy qismlarini hisoblash uslubiyatini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: milliy mahsulot, evolyusiya, Yalpi ishlab chiqarish, iqtisodiyot, jahon iqtisodiyoti, merkantilizm.

Аннотация: данная статья посвящена исследованию теоретических аспектов совершенствования методики расчета валового внутреннего продукта, движения его составляющих и макроэкономических показателей, формирующихся на каждом этапе экономического развития.

В статье описаны собственные подходы автора к экономическому содержанию валового внутреннего продукта, его составу и формам проявления, а связь между ними научно и теоретически обоснована.

В исследовательской работе приведены цель расчета валового внутреннего продукта разными способами, преимущества и недостатки каждого метода, научные предложения и практические рекомендации по их совершенствованию.

В статье наряду с теоретическими аспектами проблемы раскрываются ее практические аспекты посредством анализа официальных статистических данных, характеризующих развитие экономики республики. В заключительной части работы показаны основные направления совершенствования методики расчета ВВП и его компонентов.

Ключевые слова: национальный продукт, эволюция, валовое производство, экономика, мировое хозяйство, меркантилизм.

Abstract: this article is devoted to researching the theoretical aspects of improving the methodology of calculating the gross domestic product, the movement of its components and the macroeconomic indicators formed at each stage of economic development.

The article describes the author's own approaches to the economic content of gross domestic product, its composition and forms of manifestation, and the relationship between them is scientifically and theoretically based.

The purpose of calculating the gross domestic product in different ways, the advantages and disadvantages of each method, scientific proposal and practical recommendations for their improvement are given in the research paper.

In the article, along with the theoretical aspects of the problem, its practical aspects are revealed through the analysis of official statistical data describing the development of the republic's economy. The final part of the work shows the main directions for improving the methodology of calculating GDP and its components.

Key words: national product, evolution, Gross production, economy, world economy, mercantilism.



KIRISH

Jahon mamlakatlarida hozirgi kundagi eng katta muammo bu yalpi ichki mahsulot (Yalm) hajmi va uning o'sish sur'atlari oshirishdir. Chunki u aholi farovonligi va mamlakat taraqqiyotini jadallashtirishning iqtisodiy manbaidir. Lekin jahoning ko'pgina mamlakatlarida so'nggi o'n yillikda Yalm hajmi va o'sish sur'atlari, uning aholi jon boshiga to'g'ri keladigan qismi kamayish tendensiyasiga egaligicha qolmoqda. COVID-19 sanitar inqirozidan keyin 2022-yildan boshlab, ayrim mamlakatlardagina Yalm o'sishi bo'yicha jonlanish sezila boshladi, xolos. Shuning uchun hozirgi davrda Yalmning hajmini oshirish, barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlash, uning tarkibiy qismlari va harakat shakllarini takomillashtirish bo'yicha jahon mamlakatlarida turli xil yo'nalishlarda ilmiy izlanishlar olib borilmoqda, dasturlar, loyihamalar va boshqa ishlanmalar ishlab chiqilmoqda.

Bugungi kunda raqobat kurashi tobora kuchayib, shiddatli tus olayotgan va jahon bozori kon'yunkturasi keskin o'zgarib borayotgan murakkab vaziyatda hamda mamlakat aholisi soni va ularning iste'mol tovarlariga bo'lgan talabining oshib borishi hisobga olinib, respublika iqtisodiyotini jadal rivojlantirish va Yalmning barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlash vazifalari qo'yildi. O'zbekiston Respublikasining kelajakda mamlakatni yanada rivojlantirishga mo'ljallangan strategik vazifalarida "Iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash orqali kelgusi besh yilda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotni – 1,6 baravar va 2030-yilga borib aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadni 4 ming AQSh dollaridan oshirish hamda "daromadi o'ttachadan yuqori bo'lgan davlatlar" qatoriga kirish uchun zamin yaratish, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va yillik inflyatsiya darajasini 2023-yilgacha bosqichma-bosqich 5 foizgacha pasaytirish, davlat budgeti taqchilligini qisqartirish va 2023-yildan Yalmga nisbatan uning 3 foizdan oshib ketmasligini ta'minlash"¹ vazifalarining belgilab qo'yilishi respublikada milliy mahsulot hajmi va o'sish sur'atlarini oshirish, qo'yilgan muammoga mutlaqo yanigicha yondashish zarurligi naqadar dolzarb masalalardan ekanligi ko'rinish turibdi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Fikrimizcha, merkantilistlar o'z davrida faqat boylik manbai va uni ko'paytirish yo'llarini ilmiy tadqiq qilishgan. Lekin asosiy boylik ishlab chiqarish jarayonida yaratilgan mahsulot ekanligini tushunishmagan. Shuning uchun ham ular milliy mahsulot tushunchasiga, uning tarkibiy qismlari va harakat shakllariga yetarlicha e'tibor qaratishmagan.

Milliy mahsulotni ilmiy tadqiq qilgan oqimlardan yana biri fiziokratlardir. Bu oqimning asosiy vakillari F. Kene va A. Tyurgo² o'sha davr iqtisodiy holatini har tomonlama tahlil etib, iqtisodiyotning muhim kategoriyalari, ya'ni milliy mahsulot, milliy daromad, milliy boylik va sof mahsulot tushunchalari bo'yicha qimmatli fikrlarni berdilar. Ular fermerlarni himoya qilgan holda, avvalo, merkantilizmdan voz kechib, boylikning asosiy manbai mehnat va yer ekanligini ko'rsatdilar. "Tabiiy tartib" konsepsiysi asosida "unumli mehnat", "sof mahsulot", "kapital" to'g'risidagi ta'lomitlar ilgari surildi.

Fiziokratlar g'oyasining muhim tomoni shuki, ular merkantilistlardan farq qilib, o'z tadqiqotlarini iqtisodiyotning muomala sohasidan ishlab chiqarish sohasiga ko'chirdilar. Ammo fiziokratlar ishlab chiqarish sohasini faqat qishloq xo'jaligi sohasi bilan cheklab qo'yan edilar, ular sanoatni samarasiz soha deb bilganlar.

Fiziokratlar g'oyasida "sof mahsulot" to'g'risidagi nazariya markaziy o'rinni egallaydi. F. Kene milliy mahsulot va ishlab chiqarish xarajatlari o'tasidagi farqni sof mahsulot deb bilgan, boshqacha aytganda, bu ishlab chiqarish xarajatlardan oshiqcha mahsulotdir. F. Kene "sof mahsulot faqat qishloq xo'jaligi va dehqonchilikda yaratiladi, bu sohalarda tabiat kuchlari ta'sirida iste'mol qiymatlari miqdori ko'payadi, sanoatda esa iste'mol qiymatlari faqat turli kombinatsiyalarga uchraydi, mehnat jarayonida dehqonchilikda yaratilgan mahsulotning shakli o'zgaradi, lekin uning miqdori ko'paymaydi, shuning uchun "sof mahsulot" paydo bo'lmaydi va boylik ham yaratilmaydi"³, deb ta'kidlaydi. Fiziokratlar "sof mahsulot" deb atagan tushuncha keyinchalik "Renta" nomini oldi.

Fiziokratlarning "unumli" va "unumsiz" mehnat to'g'risidagi nazariyasi "sof mahsulot" to'g'risidagi ta'lomit bilan chambarchas bog'liq bo'lib, uning mantiqiy davomi deb hisoblanadi. Merkantilistlardan farqli ravishda ular "sof mahsulot" yaratuvchi mehnat unumli bo'ladi, ya'ni qo'shimcha qiymatni yaratadi, degan edilar. Bu unumli mehnatning tabiatini to'g'risidagi masalaga prinsipial to'g'ri yondashish yo'li edi. Ammo renta qo'shimcha qiymatning yakka-yu yagona aniq shakli sifatida tan olinganligi sababli, dehqon mehnati birdan bir unumli mehnat deb hisoblanadi, ishlab chiqarishning boshqa sohalaridagi (sanoatda ham) mehnat "unumsiz", ya'ni samarasiz, degan fikrni ilgari suradi.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. – <https://lex.uz/docs/5841063>.

2 Ф. Кенэ, А. Р. Ж. Тюрго, П. Д. Немур. Физиократы. Избранные экономические произведения. – М.: "Эксмо", 2007 г. с. 623.

3 Кенэ Ф. Избранные экономические сочинения. – М.: "Директ-Медиа", 2007 г. с. 360–364



F. Kene iqtisodiyot tarixida takror ishlab chiqarish jarayoni va milliy mahsulot muammosini butunicha ko'rsatish uchun birinchilardan bo'lib urinib ko'rdi. U o'sha davr jamiyatni fuqarolarini uch sinfga bo'ladi: birinchisi unumli sinf (fermerlar); ikkinchisi mulkdorlar sinfi (pomeshchik, cherkov...) va uchinchisi unumsiz sinf (hunarmand, ishchi va savdo xodimlari). Bu jarayon sxematik ravishda "Iqtisodiy jadval"da tasvirlangan. Unda mamlakatda ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotning aylanishi orqali qanday taqsimlanishi ko'rsatilgan, buning oqibatida ishlab chiqarishning avvalgi hajmida qayta boshlash uchun shart-sharoitlar yaratiladi.

F. Kenening g'oyalari Ann Rober Jak Tyurgo⁴ (1727–1781-yy.) tomonidan davom ettirildi va chuqurlashtirildi. Tyurgoning ta'limotida pul, qiyomat, sinflar va daromad nazariyalarini bir muncha tahlil etiladi. U "milliy boylik" bu, avvalo, yerlar va ulardan olinadigan "sof mahsulot"dir, deb qayd etadi.

A. Tyurgo boshqalar kabi erkin sohibkorlik mehnatini qo'llab-quvvatladi, dehqonchilik sof mahsulot manbai ekanligini tan olgan holda, sanoat va savdoga ham ko'p e'tibor qiladi. Lekin oxir-oqibatda fiziokratizm qo'bigan chiqa olmaydi, sof mahsulotning asosiy shakli yana yerga va yer rentasiga qaytadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Iqtisodiy jarayonlarning tizimli tadqiq qilinmaganligi, hodisa va jarayonlarning o'zaro ta'siri yetarlicha e'tiborga olinmaganligi sababli hozirgi davrda ilmiy texnika taraqqiyoti jadal sur'atlar bilan avj olib borayotgan, ishchi va xizmatchilar, turli xildagi korxona va tashkilotlarning yangi texnika-texnologiya bilan qurollanish darajasi oshib borishi va mehnat unumdarligining o'sishiga qaramasdan narxlar darajasining ko'tarilib ketayotgani, natijada yuqori inflyatsiyaning tub sabablari hanuzgacha aniqlanmagan. Holbuki, mehnat unumdarligining oshishi tovarlar va xizmatlar qiyamatining, narx darajasining pasayishiga olib kelishi kerak. Amalga oshirilayotgan investitsiyalar, uning natijasida kirib kelayotgan yangi texnika va texnologiyalar YalM hajmi, sifati, talabga mosligi va narxi bilan bog'lanmagan holda qaralib, ularning samarasini tahlil qilish chetda qolib ketmoqda. Yalpi ichki mahsulotning o'sishi uni yaratuvchilar manfaati bilan bog'liqligi hisobga olinib, ularni samarali rag'batlantirish mexanizmi ishlab chiqilmagan.

Yaratilgan mahsulotning tarkibiy qismlari, harakat shakllari va ular o'rtaсидаги bog'liqliкning chuqur o'рганимaganligi natijasida YalMning taqsimlanish jarayonida shakllanadigan omillar daromadlar o'rtaсидаги tafovut juda kattaligicha qolmoqda. Bundan tashqari, YalM tarkibiy qismlarining funksional vazifalari tadqiq qilinmaganligi sababli uning davlat budgeti, u orqali butun mamlakat taraqqiyoti (fan, ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy sohani rivojlantirish, mamlakat mudofaasini mustahkamlash) bilan bog'liqligi tadqiq qilinmagan.


Yuqorida holatlardan kelib chiqib, tadqiqot jarayonida quyidagi uslubiy masalalarga e'tiborni kuchaytirish lozim deb hisoblaymiz.

- Milliy mahsulotni tadqiq qilishda tizimlilik, mantiqiy izchillik prinsipiga (tamoyiliga) amal qilish, bunda har bir voqeа, hodisa va jarayonlarning o'zaro bog'liqligiga e'tibor qaratish;
- Milliy mahsulotning hozirgi davrdagi harakat shakli bo'lgan YalMning tarkibiy tuzilishi, ayniqsa, uning ishlab chiqarish jarayonida shakllangan qismlari va ularning funksional vazifalarini yoritishga e'tibor berish;
- YalM va uning tarkibiy qismlarining takror ishlab chiqarish fazalaridagi harakat shakllarini o'rganishga, birinchidan, uni yaratuvchilar, ikkinchidan, davlat budgeti va u orqali aholi daromadlari, uchinchidan, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti bilan bog'liqligiga e'tiborni qaratish;
- YalM tarkibiy qismlari va harakat shakllarini takomillashishining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni jadallashtirishga ta'sirini e'tiborga olish;
- YalMni tadqiq qilishda ikki tomonlama yondashuv va tahlil usuliga alohida e'tibor qaratish lozim. Chunki, bu muammoni tadqiq qilishda bir tomonlama yondashuv iqtisodiy voqeа, hodisa va jarayonlarning chuqur mohiyatiga kirib borishga, ular haqida to'g'ri xulosa chiqarishga to'sqinlik qiladi.

Fikrimizcha, ushbu aytilgan uslubiy yo'nalishlar ichida YalM hajmi, tarkibi va harakat shakllari o'rtaсидаги bog'liqliknin takomillashtirishda ikki tomonlama yondashuv va tahlil usuliga alohida e'tibor berish lozim. Chunki bu uslubsiz yuqorida aytib o'tilgan masalalarning birontasini ham hal qilib bo'lmaydi (1.1-rasm).

Bu ikki tomonlama yondashuv alohida olingen bir korxonada emas, balki barcha tovar ishlab chiqaruvchi va xizmat ko'rsatuvchi korxonalarda sodir bo'ladi va natijada ikki xil xususiyatga, ijtimoiy naflilik va ijtimoiy qiyamatga ega bo'lgan tovar va xizmatlar massasi (YalM) vujudga keladi. Bu, bir tomondan, naflilikka ega bo'lgan tovar va xizmatlar, ikkinchi tomondan, qiyamatning moddiylashgan ifodasi, ya'ni pullar harakatidan iborat bo'ladi. Keyingi bosqichda bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, qarama-qarshi turgan tovarlar va pullar harakatini tartibga solish, boshqarish zarurati vujudga keladi va u amalga oshiriladi. Samarali boshqaruv, o'z navbatida, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlaydi.

4 Ф. Кенэ, А. Р. Ж.Тюрго, П. Д. Немур. Физиократы. Избранные экономические произведения. – М.: “Эксмо”, 2007 г. с. 623.



1.1 - ras m: YalIM harakatiga qiymat va naflilik jihatdan yondashuv⁵

Bundan ko'rindaniki, YalIMni tadqiq qilishga ikki yoqlama yondashuv to'g'risidagi ilmiy konsepsiya uchta muhim uslubiy funksiyani bajaradi:

- ilmiy tushunchalar tizimini yaratish va tartiblashtirish;
- iqtisodiy munosabatlarning kelib chiqish sabablari (genetik asosi) shakllanib, uning qaror topishi, rivojlanish jarayonini bilish va oydinlashtirish;
- iqtisodiyotda sodir bo'layotgan va amal qilayotgan munosabatlarni bir tizimga keltirib, tizimli tahlil qilish va boshqarish imkonini beradi.

Ushbu bayon qilingan uslubiy yo'naliishlar milliy mahsulotning mazmuni, tarkibiy qismlari, takror ishlab chiqarish fazalaridagi harakat shakllarini va, nihoyat, uning har bir tarkibiy qismining funksional vazifasi va rolini yoritishni ham osonlashtiradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Milliy xo'jalik ko'lamida yalpi ishlab chiqarish hajmida oraliq mahsulot va yalpi ko'shilgan qiymat nisbatining o'zgarish tamoyillari YalIMni ishlab chiqarish samaradorligiga baho berishining asosiy ko'satkichlardan biri hisoblanadi.

Respublikada keyingi yillarda bozor narxlarida hisoblangan yalpi ishlab chiqarish (YalCh) hajmida oraliq mahsulot ulushi barqaror pasayib, yalpi ko'shilgan qiymat (YaQQ) salmog'i shunga mos ravishda ortib borish tavsifiga ega bo'lgan.

2.1 - jadval: O'zbekistonda YaCh hajmida oraliq mahsulot va YaQQ nisbatining o'zgarishi, (foizda, YaIM bozor narxlarida)⁶

Ko'satkichlar	Yillar						
	2000	2005	2010	2015	2020	2022	2022-yil 2000-yilga nisbatan o'zgarishi
Yalpi ishlab chiqarish hajmi	100	100	100	100	100	100	
Oraliq mahsulot	50,3	49,1	45,3	42,8	43,0	43,2	-7,1
Yalpi ko'shilgan qiymat	49,7	50,9	54,7	57,2	57,3	57,6	7,9
Farqi "+" "-"	-0,6	1,8	9,4	14,4	14,3	14,4	

5 Muallif ishlanmasi.

6 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.



Bu davrda ular ulushi o'tasidagi farq yalpi qo'shilgan qiymat ko'rsatkichi foydasiga 7,9 % ga ortgan, ya'ni YaIMning qayd qilingan hajmini ishlab chiqarish uchun 2022-yilda 2000-yil bilan taqqoslaganda 7,1% ga kam qayta ishslash, ishlov berish va qayta sotish maqsadidagi mahsulotlar ishlataligan.

Milliy ishlab chiqarish hajmi asosiy narxlarda hisoblanganda oraliq mahsulot va qo'shilgan qiymat ulushining ikkinchisi foydasiga o'zgarishidagi farq yanada kattaroq miqdorni tashkil qiladi. Tahlil qilingan davrda ishlab chiqarish hajmida oraliq mahsulot ulushi barqaror qisqarib, YaQQ salmog'i ortib borish bilan birga, farqlar ko'lami ham kattalashib borgan. Jumladan, 2022-yilda bozor narxlarda hisoblanganda farqlar ko'lami 14,4 %ga, asosiy narxlarda hisoblanganda esa 9,8 %ga teng bo'lgan, ya'ni bitta ko'rsatkichning ikki xil narxlardagi farqi 4,6 %ni tashkil qilgan.

2.2 - jadval: O'zbekistonda YaICh hajmida oraliq mahsulot va YaQQ nisbatining o'zgarishi, %da (asosiy narxlarda)⁷

Ko'rsatkichlar	Yillar						2022 yil 2000 yilga nisbatan o'zgarishi
	2000	2005	2010	2015	2020	2022	
Yalpi ishlab chiqarish hajmi	100	100	100	100	100	100	
Oraliq mahsulot	53,4	51,9	45,3	45,0	45,2	45,3	-8,1
Yalpi qo'shilgan qiymat	46,6	48,1	54,7	55,0	55,3	55,1	8,5
Farqi "+" "-"	-6,8	-3,8	9,4	10,0	10,1	9,8	

Asosiy narxlarda hisoblanganda YaICh hajmida oraliq mahsulot ulushi 2000 va 2005-yillarda 50,0 % lik darajadan yuqori ulushni tashkil qilib, YaQQ dan mos ravishda 6,8 % va 3,8 %ga ortiq bo'lgan. Keyingi davrlarda farqlar ko'lami YaQQ foydasiga barqaror ortib, 2022-yilda uning ulushi 55,0 % dan ortgan va oraliq mahsulot bilan farqi 9,8 %lik darajaga yetgan.

Bu YaIMning mayjud hajmini ishlab chiqarishga 2000-yil bilan taqqoslaganda 2022-yilda 9,8 %ga teng miqdordagi oraliq mahsulot qiymati kamroq ishlataliganligini anglatadi. Respublika iqtisodiyotidagi bu ijobji tamoyillar, bir tomonidan, yalpi ishlab chiqarish hajmida xom-ashyo va yarim tayyor mahsulotlar ulushi kamayib, pirovard tovar va xizmatlar salmog'i ortib borayotganligini, boshqa tomondan, iqtisodiy va moliyaviy resurslar sarfida tejamkorlik omillarining ahamiyati o'sayotganligini bildiradi.

Respublikada YaIM ishlab chiqarish tarkibidagi ro'y bergen ijobji o'zgarishlar, avvalo, tovarlar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishning pirovard natijalaridagi ijobji siljishlar natijasi hisoblanadi. O'rganilgan davrda milliy iqtisodiyotda tovarlarning yalpi ishlab chiqarish hajmida ham oraliq mahsulot ulushi barqaror qisqarib borish tamoyillariga ega. Biroq, bu qisqarish butun real iqtisodiyot va xizmat ko'rsatish sohalariga qiyosan sezilarli darajada katta ko'lama ega emas. Mazkur qisqarishning 2000–2022-yillardagi o'rtacha darajasi bozor narxlarda hisoblangan yalpi ishlab chiqarish hajmidagi oraliq mahsulot ulushi qisqarishidan 1,3 barobarga, asosiy narxlarda hisoblangan xuddi shu ko'rsatkichnikidan 1,5 martaga va xizmat ko'rsatish yalpi hajmidagi oraliq mahsulot salmog'i qisqarish darajasidan 1,4 barobarga yaqin kam bo'lgan.

2.3 - jadval: O'zbekistonda YaICh hajmida oraliq mahsulot va YaQQ nisbatining o'zgarishi, %da 2000–2022-yillar⁸

Ko'rsatkichlar	Oraliq mahsulot	YaQQ	YaQQ ulushining o'sishi
Yalpi ishlab chiqarish hajmida bozor narxlarda asosiy narxlarda	-7,1 -8,1	7,9 8,5	15,1 18,0
Tovarlarning yalpi ishlab chiqarish hajmida	-4,7	4,6	10,3
Xizmat ko'rsatish yalpi hajmida	-8,1	8,1	14,6

Natijada tovarlarning yalpi ishlab chiqarish hajmida qo'shilgan qiymat ulushi barcha davrlarida 50,0 %lik darajadan past ko'rsatkichni tashkil qilib, 2022-yilda 2000-yildagi 41,6% dan 46,2% gacha ortgan. Oraliq mahsulot ulushining barqaror kamayishi va YaQQ salmog'ining ulushi ortishi natijasida 2022-yilda 2000-yil bilan taqqoslanganda bozor narxlarda hisoblangan yalpi ishlab chiqarish hajmi 15,1 %ga (asosiy narxlardagisi 18,0 % ga), tovarlarning xuddi shunday hajmi 10,3% ga, xizmat ko'rsatishniki esa 14,6% ga ortgan.

7 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.

8 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.



2.4-jadval: O'zbekistonda tovarlarni ishlab chiqarish yalpi hajmida oraliq mahsulot va YaQQ nisbatining o'zgarishi, % da⁹

Ko'rsatkichlar	Yillar						2022 yil 2000 yilga nisbatan o'zgarishi
	2000	2005	2010	2015	2020	2022	
Tovarlarning yalpi ishlab chiqarish hajmi	100	100	100	100	100	100	
Oraliq mahsulot	58,4	56,8	54,1	54,1	53,4	53,7	-4,7
Yalpi qo'shilgan qiymat	41,6	43,2	45,9	45,9	46,5	46,2	4,6
Farqi "+" "-"	-16,8	-13,6	-8,2	-8,2	-6,9	-7,5	

Respublikada o'rganilgan davrda yalpi ishlab chiqarish hajmida qo'shilgan qiymat ulushining 7,5 %ga o'sishiga tovar ishlab chiqarish hajmida qo'shilgan qiymat ulushi ortishiga qiyosan xizmat ko'rsatish hajmida shu ko'rsatkichning yuqori o'sish sur'atiga ega bo'lishi ijobjiy ta'sir ko'rsatgan. Bu davrda tovarlarning yalpi ishlab chiqarish hajmida qo'shilgan qiymat ulushi o'sishiga nisbatan (4,3 %), xizmat ko'rsatish hajmida mazkur ko'rsatkich o'sishi (8,1 %) 1,4 barobarga yaqin yuqori bo'lган. Ayni vaqtida xizmat ko'rsatish yalpi hajmida oraliq mahsulot ulushi qisqarishi ham tovar ishlab chiqarish hajmidagi shunday ko'rsatkichdan 1,4 barobar ko'proqdir.

2.5-jadval: O'zbekistonda xizmat ko'rsatishning yalpi hajmida oraliq mahsulot va YaQQ nisbatining o'zgarishi, % da¹⁰

Ko'rsatkichlar	Yillar						2022 yil 2000 yilga nisbatan o'zgarishi
	2000	2005	2010	2015	2020	2022	
Xizmat ko'rsatish yalpi hajmi	100,0	100,0	100,0	100	100	100	
Oraliq mahsulot	44,7	42,6	39,3	36,6	36,4	36,1	-8,6
Yalpi qo'shilgan qiymat	55,3	57,4	60,7	63,4	63,8	64,2	8,9
Farqi "+" "-"	10,6	14,8	21,4	26,8	26,8	28,1	

2000–2022-yillarda oraliq mahsulot va yalpi qo'shilgan qiymat nisbati yalpi tovar ishlab chiqarish hajmida 1,4:1,0 dan 1,2:1,0 gacha qisqargan bo'lsa, xizmat ko'rsatish yalpi hajmida bunday qisqarish 0,8:1,0 dan 0,58:1,0 gacha nisbatda ro'y beragan. Boshqacha aytganda, 2000-yilda 100 so'mlik tovar ishlab chiqarishga 140 so'mlik, shuncha miqdorda xizmat ko'rsatishga 80 so'mlik oraliq mahsulot ishlataligan bo'lsa, 2022-yilda oraliq mahsulot sarfi tovar ishlab chiqarishda 120 so'mni, xizmat ko'rsatishda 58 so'mni tashkil qilgan, ya'ni, ularning nisbiy ulushi mos ravishda 8,8 va 28 %ga qisqargan.

Milliy ishlab chiqarish samaradorligini va aholi farovonligini oshirish talabi yalpi ishlab chiqarish hajmida oraliq mahsulot ulushini qisartirish hisobiga qo'shilgan qiymat salmog'ini o'stirib borishni taqozo etadi. Bu talab butun milliy iqtisodiyotga tegishli bo'lsa-da, tovar ishlab chiqaruvchi tarmoqlarda oraliq mahsulot ulushini qisqartirishning katta imkoniyatlari mavjud. Bunda resurs tejovchi texnologiyalarni joriy qilib borish alohida o'rinn tutadi. Xizmat ko'rsatish yalpi hajmida oraliq mahsulot ulushi tovar ishlab chiqaruvchi tarmoqlarga qiyoslaganda 1,4 barobarga kam ko'rsatkichni tashkil qiladi, mazkur soha xususiyatidan kelib chiqib, uni yanada qisqartirish hisobiga qo'shilgan qiymat salmog'ini o'stirish samaradorlikning muhim omili bo'lib qoladi.

YalCh hajmida qo'shilgan qiymat ulushini o'stirib borishda oraliq mahsulot salmog'ining qisqarishini taqozo qiladigan mahalliylashtirish jarayoni ko'lами kengaytirish muhim yo'naliшlardandir.

Bu mahalliy xomashyo bazasi asosida import o'rnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarishni yo'liga qo'yish orqali nafaqat tashqi bozorlarga bog'liqlikni kamaytiradi, balki ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish orqali qo'shilgan qiymat ulushi o'sishi uchun sharoit yaratadi. Bundan tashqari, mahalliylashtirishni chuqur lashtirish mahalliy xomashyoga ichki talabni shakllantirish, ishlab chiqarish quvvatlaridan to'laroq foydalanishni ta'minlash, valyuta resurslarini xomashyo hamda butlovchi materiallar importini qisqartirish hisobiga tejash, aholi bandligini oshirib borish imkonini beradi.

9 O'sha manba.

10 O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Respublikada yaqin istiqbolda ham iqtisodiyotning mulkiy tuzilishidagi o'zgarishlar nodavlat mulk shakllari nisbatli foydasiga ro'y beradi. O'z navbatida, bunday o'zgarishlar nodavlat mulk shakllari ichki tuzilishiga ham tegishli bo'ladi.

Hozirgi bosqichda O'zbekiston iqtisodiyoti Yalm mulkiy tuzilishidagi o'zgarishlarni taqozo qiluvchi yo'nalishlar sifatida quyidagilarni qayd qilish mumkin:

1. Xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish. Bu bir tomondan, nodavlat mulk shakllari, boshqa tomondan uning tarkibida fuqarolar xususiy mulki ulushining barqaror o'sishiga olib keladi.

Respublikada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar natijasida 2022-yilda 38,2 mingdan ortiq yangi kichik biznes subyektlari (dehqon va fermer xo'jaliklarisiz) tashkil etilib, ularning umumiyligi soni 245 mingdan ko'proqni tashkil qilgan. Yalmni shakllantirishda bu sohaning ulushi 2000-yildagi 31 %dan, 2022-yilda 53,3 %ga yetgan. 2022-yilda yaratilgan ish o'rinalining yarmidan ko'prog'i kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka tegishli bo'lgan. Hozirgi kunda bu sohaga barcha band bo'lganlarning 78,3 % ni to'g'ri keladi¹¹.

2. Mamlakatda ishchi kuchining samarali bandligini ta'minlash. O'zbekistonda bandlikning mulkiy tarkibida ro'y bergan o'zgarishlar, milliy iqtisodiyotda xususiy mulk va uning doirasida xo'jalik yuritishning turli-tuman shakllari ustuvor o'rinnegallab borayotganligini ko'rsatadi. Bu tamoyil istiqbolda ham iqtisodiyotning mulkchilik tarkibidagi muqarrar ro'y beradigan o'zgarishlar tufayli o'z o'rnini saqlab qoladi.
3. Xususiylashtirish va mulkni davlat tasarrufidan chiqarish jarayonini yanada chuqurlashtirish. Bu sohada hozirgi bosqichdagi muhim ustuvor yo'nalish iqtisodiyotidagi davlat ulushini iqtisodiy asoslangan darajaga qadar qisqartirish hisoblanadi.
4. Iqtisodiyotda korporativ mulk yoki aksiyadorlik birlashmalari faoliyati samaradorligini oshirish. Milliy iqtisodiyotga qo'yilgan kapital qo'yilmalarda to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar ulushini o'stirib borish. 2000–2022-yillarda to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar ulushi ikki barobardan ko'proqqa ortib 2020-yilda 73,8 %ni tashkil qilgan.
5. Korxonalarning o'z mablag'lari hisobidan yo'naltiriladigan to'g'ridan to'g'ri xususiy investitsiyalar ulushi oshirib borish. Respublikada bunday investitsiyalar hajmi 2022-yilda jami investitsiyalar hajmining qariyb 34,0 % dan ko'prog'ini tashkil etgan.
6. Jami investitsiyalarda fuqarolar xususiy mulki hisobiga shakllanadigan mablag'lar salmog'ini o'stirib borish. Respublikada bunday mablag'larning jami investitsiyalardagi ulushi o'zgarishiga nisbatan beqarorlik tamoyili xos. Uning yalpi investitsiyalardagi ulushi 1997-yildagi 10,5 %dan, 1998 yilda 19,5 %ga yetgan, keyin yana pasayib, 2001-yilda 10,8 % lik darajaga tushgan. 2010-yildan mazkur mablag'lar ulushi barqaror o'sib (16,0 %), 2022-yilda 21,0 %lik darajaga yetgan.
7. Xorijiy kapital ishtirokidagi qo'shma korxonalar faoliyatini kengaytirish. Hozirgi kunda respublikamizda mashinasozlik, neft-gaz, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohalarida, kimyo, to'qimachilik, oziq-ovqat, farmasevtika sanoati, qurilish materiallari ishlab chiqarish va boshqa tarmoqlarda 90 dan ortiq mamlakatning xorijiy kapitali ishtirokida tashkil etilgan 4 mingdan ziyod korxonalar muvaffaqiyatlari faoliyat yuritmoqda. Bu, milliy xo'jalik mulkiy tuzilishini takomillashtirish bilan birga, iqtisodiyotimiz tarmoqlarini tubdan modernizatsiya qilish, mahsulot ishlab chiqarishni kengaytirish va uning turini ko'paytirish, jahon bozoridagi raqobatbardosh yangi mahsulotlar ishlab chiqish imkonini bermoqda. Respublika iqtisodiyotining mulkiy tuzilishi takomillashuviga olib keluvchi mazkur omillar, Yalm da nodavlat mulk salmog'ini o'stirib borish bilan birga, uning samaradorligini oshirishni ham ta'minlaydi.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Абалкин Л. Роль государства в становлении и регулировании рыночной экономики. Вопросы экономики. 1997. № 6.
2. Балашова Е. Финн Кидланд и Эдвард Прескотт: движущие силы экономических циклов. Вопросы экономики. 2005. № 1. -<https://www.vopreco.ru/jour/article/view/1397>.
3. Балацкий Е.В. Функциональные свойства институциональных ловушек. Экономика и математические методы. 2002. Т.38. №3. -<https://meps.econ.vsu.ru/meps/article/download/182/973>.
4. Vohobov A.V. Bozor munosabatlariiga o'tish bosqichida kup ukladli iqtisodiyot va uning takroran hosil bo'lishi. Monografiya. T. 2002 y.

11 <https://stat.uz/uploads/docs/maliy-biznes-yan-dek-2017-uz.pdf>



5. Веселов Д.А., Яркин А.М. Институциональные изменения, неравенство и долгосрочное экономическое развитие: теория и эмпирика. Вопросы экономики. 2022. № 1. - <https://www.vopreco.ru/jour/article/view/3074>.
6. Jo'rayev T. T., Oripov A. Milliy iqtisodiyotning innovatsion salohiyati va undan samarali foydalanish yo'llari. Xalqaro moliya va hisob 2021. №3. - <https://interfinance.uz/en/arxiv/268-2-2021>.
7. Kalandarov R.A. Iqtisodiyotning real sektori rivojlanishida institutsional o'zgarishlarning xorijiy tajribasi. Biznes-Ekspert. 2020. №9-10 (153-154).
8. Qalandarov R.A. The Importance of Institutional Changes in the Context of Innovative Development of the Economy. Journal of Management Value & Ethics. 2021 Jan.-March. Vol. 11 No.01. -<http://jmveindia.com/journal/FILE%20JAN-MARCH%202021%20FINAL.pdf>.
9. Kalandarov R.A. Iqtisodiyotning real sektori rivojlanishiga institutsional o'zgarishlarning ta'sirini oshirish yo'llari. Xalqaro moliya va hisob 2021. №3. - <https://www.interfinance.uz/en/arxiv/269-3-2021>.
10. Kalandarov R.A. The role of the state in increasing the impact of institutional changes on real sector development. International Journal of Management, IT and Engineering. 2022. Volume 12, Issue 1. - https://www.ijmra.us/2022ijmie_january.php.
11. Карпунина Е.К. Зарубежный опыт модернизации экономической политики в условиях постиндустриальной трансформации. Всемирная история модернизации. - <https://cyberleninka.ru/article/n/zarubezhnyy-optyt-modernizatsii-ekonomicheskoy-politiki-v-usloviyah-postindustrialnoy-transformatsii/viewer>.

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Telefon: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lisingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

«Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot» jurnali 03.11.2022-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027



Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi 26-uy.